

**TA'LIM SOHASIGA INNOVATSIYALARNI JORIY QILISHDA  
IJTIMOIY HAMKORLIKNI KUCHAYTIRISH OMILLARI**

**Jurayev Alisher Tulqinboyevich**

**Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti**

***E-mail: Alisher.Juraev@mail.ru***

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta'lim sohasiga innovatsiyalarni joriy qilishda ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirish omillari, ularning zaruriyati va natijalari xususida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Fuqarolik jamiyati, ijtimoiy hamkorlik, nodavlat notijorat tashkilotlar (NNT), inson kapitali, ijtimoiy sherikchilik.

**ФАКТОРЫ УКРЕПЛЕНИЯ СОЦИАЛЬНОГО  
СОТРУДНИЧЕСТВА ПРИ ВНЕДРЕНИИ ИННОВАЦИЙ В СФЕРЕ  
ОБРАЗОВАНИЯ**

**Жураев Алишер Тулкинбоевич**

**Докторант Наманганского государственного университета**

***E-mail: Alisher.Juraev@mail.ru***

**Абстрактный.** В данной статье рассматриваются факторы усиления социального сотрудничества при внедрении инноваций в сфере образования, их необходимость и результаты.

**Ключевые слова:** Гражданское общество, социальное сотрудничество, неправительственные некоммерческие организации (НПО), человеческий капитал, социальное партнерство.

**FACTORS FOR STRENGTHENING SOCIAL COOPERATION IN  
IMPLEMENTING INNOVATIONS IN THE FIELD OF EDUCATION**

**Jurayev Alisher Tulkinboyevich**

**Doctoral student of Namangan State University**

***E-mail: Alisher.Juraev@mail.ru***

**Abstract.** This article discusses the factors of strengthening social cooperation in the introduction of innovations in the field of education, their

necessity and results.

**Key words:** Civil society, social cooperation, non-governmental non-profit organizations (NGO), human capital, social partnership.

**KIRISH.** O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lidagi sa'y-harakati davlat va jamiyatning barcha sohalardagi, shu jumladan, ta'lim tizimi faoliyatidagi chuqur islohotlar bilan bog'liq. Ta'limni qayta tuzishning samaradorligi faqat ajdodlarning turli faoliyat sohasidagi tajribalarini to'plovchi va jamiyatning yanada rivojlanishi uchun puxta zamin hozirlovchi institut sifatida tan olinishi bilangina emas, balki ular samarali faoliyat ko'rsatishi uchun zarur resurslarni bunyod etish bilan ham belgilanadi. Shulardan kelib chiqib, biz ushbu maqolada ta'lim tizimini rivojlantirishda fuqarolik jamiyati institutlarining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi va davlat va nodavlat notijorat tashkilotlar hamkorligini kuchaytirishning asosiy sabab va oqibatlari kabi masalalarini yoritishni maqsad qildik.

Ijtimoiy sherikchilik o'z ichiga mamlakatda ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha barcha jamoat sektorlarini o'zaro konstruktiv munosabatlarini, ta'limning turli ko'rinishlari uchun yaxshi sharoit yaratishni nazarda tutadi. Bular qiziqishlar bo'yicha norasmiy ta'lim klublari, malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari, bolalar va yoshlarni tabiiyalash va rivojlantirishni maqsad qilgan jamoat tashkilotlari va boshqalari. Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda muhim o'rinni nodavlat notijorat tashkilotlari egallaydi. Xorijda ularni jamiyat uchun foydali tashkilotlar deb atashadi. Ular birinchi navbatda ma'lum hudud yoki davlat miqyosidagi ustuvor ijtimoiy muammolarni yechishga qaratilgan. Shuni muhimki, o'zlarini bilim darajalarini nafaqat NNTlar tomonidan turli shakllardagi ta'lim faoliyati doirasidagi guruhlar balki uchinchi sektordagi ushbu sohaga jalb qilinganlar ham (misol uchun, volontyorlar, talabalar, birinchi ish tajribasini olayotganlar, va boshqalar). Albatta muhim guruh bu yoshlar va bolalar.

**ADABIYOTLAR TAHLILI.** Fuqarolik jamiyatining ustuvor tamoyillaridan biri manfaatlarni ko'pligi va qaror qabul qilishda maksimal tarzda ularni hisobga olishga harakat qilishdir. Turli xil ko'pchilik hollarda turli yo'nalishlarni va manfaatlarni

hisobga olish ancha qiyin, demokratik davlat, tegishli sharoitlarni yaratish orqali individni o'zini ishtiyoqini oshiradi, shuningdek ushbu manfaatlarni amalga oshirishga qaratilgan turli fuqarolik birlashmalarni o'zlari jamiyatdagi paydo bo'layotgan muammolarni mustaqil yechishni yo'lga qo'yadi. O'z o'rnida, bu subsidiyalik tamoyil asosining biridir.

Albatta, buning uchun nafaqat faol fuqarolar va ularning birlashmalari bo'lishi kerak, balki ma'lum darajada bilim ham bo'lishi lozim. O'z vaqtida bejiz "qonun diktaturasiga"[1] mo'ljallangan siyosat, faqat jamiyatda "Tushunchaning yuridik-huquqiy turi" ustun bo'lganda muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Tushunchani turlari ko'p jihatdan ta'limga bog'liq, bunda rasmiy, norasmiy va inorasmiylarni o'z ichiga oladi. Oxirgisi individual yoki guruh darajada ta'limning tashkiliy shakli turli xil ko'rinishga ega. Bu - o'z bilimini oshirish ustida ishlash katta o'rin egallovchi o'ziga xos hayot universitetidir. Ammo inorasmiy ta'lim o'z-o'zini bilimini oshirishga yaqin bo'lib, agar ta'lim institutlarini shakllarini xususiyatiga ko'ra mantiqiy bo'lsak, norasmiy ta'limning alohida shakllarining bir qismi sifatida qarash mumkin. Ta'lim sohasi o'zining barcha shakllari va ko'rinishlarida ijtimoiy kapital bilan yaqin munosabatga ega [2].

A.Giddens ijtimoiy kapitalni oshishi va insonni ta'lim olish jarayonida rivojlanuvchi kommunikativ qobiliyati bilan jamiyatda unga ishonch darajasini ko'tarilishi hamda ularni ko'proq ijtimoiy moslashuvi bilan bog'lagan [3].

Ta'lim ijtimoiy soha va fuqarolik jamiyatini muhim qismi sifatida yaqin o'zaro munosabatlarda bo'ladi. Shundan ba'zi zamonaviy g'arb sotsiologiyasining yondashuvlariga asosan jamiyatning ijtimoiy tashkiloti "insonni "ijtimoiy o'lchovi", uning o'zining ehtiyojlarini bevosita yoki bilvosita qondirilishi uchun birlashadigan qobiliyatlaridan kelib chiqadi"[4]. Ta'lim nafaqat shaxsni rivojlantiradi balki madaniyat bilan birga o'tmish, hozirgi davr va kelajak o'rtasidagi uzviylikni ta'minlovchi faktor hisoblanadi.

Mutaxassislarga yaxshi ma'lumki, har 20 yilda bilimlar hajmi ikki karra oshadi va bu ta'lim jarayonida o'z aksini topishi lozim. Insoni kapitalini rivojlantirish bugungi kunda investitsiya qilishdagi ustuvor sohalardan bo'lib

bormoqda, ta'lim esa ushbu rivojlanishda asosiy strategik manbaa sifatida qaraladi. Shu bilan birga, 2000-yilning 8-sentyabridagi BMTning Bosh assambleyasida tasdiqlangan BMTning Ming yilligi deklaratsiyasida belgilanganidek, "globallashuv keng imkoniyatlar ochsa ham, undan hamma ham teng foydalanma ololmayapti"[5]. Globallashuv bilan bog'liq salbiy omillarning xavfini pasaytirish uchun butun dunyoda asosiy e'tibor ta'limga qaratilmoqda. Asosan iqtisodiyotini modernizatsiya qilishning bir qismi sifatida "inson kapitalini ahamiyatini oshirish - malakasini va bilimlarini" qarayotgan "daromadi past ko'rsatgichlariga ega davlatlar"; bunda ham "ta'limga harajatlar birinchi navbatda kapital kiritishni nazarda tutadi".

Ta'lim masalalarida uchinchi yoki aniqrog'i - ko'ngilli jamoat sektorini o'rni yuqori. Odatda nodavlat notijorat tashkilotlarni 4 asosiy turiga bo'lishadi:

- o'zi va o'zaro yordam birlashmalari;
- ijtimoiy islohotlarga qaratilgan tashkilotlar;
- klub shaklidagi tashkilotlar;
- korporativ va professional uyushmalar [6].

Birinchi shakldagi tashkilotlar keng omma orasida tarqalgan. Ularning faoliyati birinchi navbatda aholini ijtimoiy muhtoj qatlamlarining muammolarini yechish bilan shug'ullanishadi, ijtimoiy xizmatlar, sog'liqni saqlash va ta'lim tizimlaridagi bo'shliqlarni o'zlarini faoliyati bilan to'ldiradi.

Ikkinchi shaklga ekologik, huquqni himoya qilish, yoshlar, ayollar kabi NNTlarni kiritish mumkin. Ushbu tashkilotlar faoliyati ko'proq yoki kamroq ijtimoiy o'zgarishlar va yangilanishga qaratilgan, ushbu yo'nalishlardagi muammolarni ko'tarish orqali hokimiyat institutlari, davlat siyosatiga ta'sir ko'rsatadi. Ushbu guruhga nodavlat notijorat sektorini o'zini rivojlantirishga qaratilgan tashkilotlar kiradi.

Uchinchi shakldagi tashkilotlar asosan insonlarni dam olish vaqtlarini, ularni bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishni tashkillashtirishda xizmat qiladi.

Shundan kelib chiqib, deyarli barcha NNTlar qaysidir bir darajada ta'lim

muammolarini o'z ichiga oladi, birinchi navbatda albatta norasmiy va inorasmiy ta'limni. Darhaqiqat, norasmiy uchrashuvlar, tanlovlar, birorta loyihalarni taqdimotlar, shuningdek professional masalalarda ham insonlar o'zlari bilmagan holda o'z bilim va qarashlarini boyitib boradi. Mana shuning uchun yoshlarni bo'sh vaqtlarni mazmunli o'tkazilishini professional yondashuv talab etiladi. Agar yoshlar biror qiziq ish bilan mashg'ul bo'lsa ularda boshqa salbiy ishlarga vaqti ham qiziqishi ham qolmaydi. Bu o'z o'rnida, kattalarning yoshlarga berayotgan tanbeh yoki ogohlantirishlaridan samaraliroqdir.

Shu bilan birga shunday tashkilot va birlashmalar borki, ular bevosita ta'lim bilan bog'liq birinchi navbatda innovatsion jihatidan. O'z vaqtida S.T.Shatskiy "muhitni pedagoglashtirish" zaruriyati, ta'lim muassasasini jamoat tashkilotlari va aholi bilan yaqindan hamkorlikni yo'lga qo'yish lozimligini ta'kidlagan [7]; bugungi kunda bunday yondashuvni ta'limda ijtimoiy sherikchilik deb nomlash mumkin.

Bu turli nodavlat yoshlar klublari, reabilitatsiya va milliy-madaniy markazlar, ekologik va texnik to'garak, ijodiy ustaxonalar, havaskor teatrlar, jamoat konsultativ markazlari va ma'lum bir hududda ishlovchi boshqa NNTlar. Aynan nodavlat notijorat sektori doirasida ta'lim berish katta o'rin egallaydi: xorijda "jamoat uchun foydali tashkilotlar" deb nomlanuvchi shunday tashkilotlarda ishlovchi ko'ngillilar va mutaxassislar nafaqat insonlarga yordam beradi balki o'zlari ham o'zlari uchun muhim "hayot maktabi"ni o'tashadi.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI.** Konsepsiya sifatida jamoatchilikka-yo'nalgan ta'lim (ko'plab davlatlarda 70 yildan beri mavjud) o'ziga xos ta'lim falsafasini o'zida aks etib, quyidagilar asosiy tamoyillar hisoblanadi:

Ta'lim insonning butun umri bo'yi davom etadigan uzluksiz jarayondir. Jamiyatni barcha a'zolari, shu jumladan, alohida fuqarolar, ishbilarmonlar doiralar, davlat xizmatchilari, jamoat tashkilotlari jamiyatning barcha a'zolarini ta'lim darajasini oshirish uchun mas'uldir.

Jamiyat ehtiyojlari va manbaalarini aniqlashdagi faoliyatida ishtiroki va jamiyathayotini yaxshilash uchun mavjud manbaalar hisobidan ushbu ehtiyojlarini qondirish jamiyatning har bir a'zosining huquqi va majburiyati hisoblanadi.

Mamlakatimizda nodavlat notijorat tashkilotlar, fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining amalda to'la mustaqilligini ta'minlash uchun yetarli imkoniyatlar yaratilgan. Ya'ni, "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyilini izchil amalga oshirish doirasida aholi keng qatlamlari tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan, xalqimiz tarixidan chuqur o'rin egallagan mustaqil ish olib boradigan, barqaror fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish hamda rivojlantirish uchun barcha zarur tashkiliy-huquqiy va moddiy sharoitlar yaratilgan. Faqatgina ularni amalga oshirish mexanizmini yanada takomillashtirish, bunda sohaga zamonaviy usullarni keng jalb qilish bugunning dolzarb masalalardan bo'lib qolmoqda.

Nodavlat notijorat tashkilotlarning faoliyatini yanada kuchaytirish, ularni ma'naviy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash erkin, ochiq fuqarolik jamiyatini qurish yo'lidagi asosiy harakatlardan biri ekanligini inobatga olsak, ayni paytda, nodavlat jamoat tuzilmalarini yaratish jarayonini rag'batlantirishga oid boshqa iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy mexanizmlarni ham ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bunda xorijiy tajribalarni o'rganish, xalqaro tashkilotlarning tavsiyalaridan va xalqaro hujjatlardan foydalanish va eng avvalo, tarixiy va ma'naviy qadriyatlarimiz, mustaqillik yillarida orttirgan tajribalarimizga asoslanish maqsadga muvofiq.

Bizningcha, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini takomillashtirishning zamonaviy mexanizmini yaratishda eng avvalo ijtimoiy tuzilmalarni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashni keng yo'lga qo'yish lozim. Ya'ni, nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa jamoat tuzilmalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash respublikamizda bunday tuzilmalarga oid ijtimoiy siyosat yuritishning yangi modelini yaratish, bu tuzilmalar bilan faol hamkorlikni yo'lga qo'yish, ularni ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni yechishga jalb etish, ularga axborot, maslahat, uslubiy, tashkiliy-texnik jihatdan ko'maklashish, shuningdek, davlat ijtimoiy buyurtmalari orqali bu tuzilmalar faoliyatini jadallashtirishga olib keladi.

Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash. Bunda asosiy e'tibor quyidagilarga qaratiladi:

- uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash - bu uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish, axborotli materiallar, qo'llanmalar, ko'rgazmali qurollar yaratish va boshqa vositali yo'llardan foydalanish.

- tashkiliy-texnikaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash - bu seminar, konferensiya, davra suhbat, trening, o'quv va malaka oshirish kurslarini tashkil etishdan iborat.

- ijtimoiy buyurtma berish orqali qo'llab-quvvatlash -ya'ni, nodavlat notijorat tashkilotlari uchun qulay va manfaatli yo'nalish bo'lib, bunda davlat va davlat organlari tomonidan ijtimoiy masalalarni hal etishga yo'naltirilgan, maqsadli tadbir va aksiyalarni, aniq muammolarni yechishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazishda qatnashish uchun moliyaviy ko'mak olish maqsadida turli tender va tanlovlar e'lon qilish tushuniladi.

Fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat tomonidan qo'llab quvvatlashga qaratilgan kompleks tadbirlar orasida yangi qonunchilikning yaratilishi muhim hisoblanadi. Yangi qonunchilikda esa xalqaro huquqning ustuvor tamoyillari va qoidalari, xalqaro tajribalar inobatga olinishi lozim. Chunki, rivojlangan mamlakatlardagi mavjud qonunchilik fuqarolik jamiyatining bu institutini har tomonlama shakllantirish va rivojlantirishga keng imkoniyatlar bergan.

Bugun mamlakatimizda nodavlat ta'lim sohasini yanada rivojlantirish sohaga oid qonunchilikni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2017-yil 17-sentyabrda mamlakatimiz Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan "Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [8] qarorining asosiy mohiyati ham aynan nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish, ta'limning yuqori sifatini ta'minlashda davlat va nodavlat ta'lim muassasalari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini yaratish, shuningdek, nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish sohasidagi yuridik shaxslar uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatlidir.

**TAHLILLAR VA NATIJALAR.** Shunday qilib mamlakatda nodavlat

notijorat tashkilotlari va boshqa ijtimoiy tuzilmalarni rivojlantirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa jamoat tuzilmalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning huquqiy asoslarini takomillashtirish, amaldagi qonunchilikni qayta ko'rib chiqish;

- hukumat tomonidan bu sektorni rivojlantirishga oid davlat dasturini qabul qilish;

- bunday tuzilmalarni tuzish va ro'yxatdan o'tkazish tartibini qayta ko'rib chiqish, soddalashtirilgan tartibni yaratish;

- hukumat bilan bu tuzilmalar o'rtasida manfaatli shartnomaviy munosabatlarga o'tish va boshqalar.

Yuqoridagi maqsadni amalga oshirish quyidagi vazifalarni bajarishda o'z aksini topadi:

Birinchidan, davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa jamoat tuzilmalari o'rtasida hamkorlik tizimini takomillashtirish. Ya'ni;

- Fuqarolik tashabbuskorligini o'stirishga sharoit yaratish;
- Davlat ijtimoiy buyurtmalari orqali nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa jamoat tuzilmalarinin gijtimoiy yo'nalishdagi dasturlarini moliyalashtirish;
- davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa jamoat tuzilmalari hamkorligi bo'yicha maslahat kengashlari tuzish;
- birgalikdagi ilmiy, amaliy, xalqaro tadbirlarini o'tkazib turish;
- jamoat tuzilmalarini axborotlar bilan ta'minlash;
- jamoat tuzilmalarini ro'yxatga olish tizimini takomillashtirish;
- jamoat tuzilmalarini boshqarish tizimini shakllantirish va kadrlar malakasini oshirishga ko'maklashish va boshqalar.

Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqishda manfaatli shartnomalar tuzish bilan birgalikda davlat va nodavlat notijorat tashkilotlar o'rtasida ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirish eng dolzarb vazifalardan hisoblanadi.



Xo'sh davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi o'zaro ijtimoiy hamkorlik nima?

Bir qaraganda ijtimoiy hamkorlik iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy tushunchadek ko'rinsa-da, aslida u huquqiy yo'nalishdagi katta sohalardan biridir. Hozirgi vaqtda u mehnat sohasida, ijtimoiy ta'minot sohasidagi qonunchilikda keng qo'llanib kelinadi.

Ijtimoiy hamkorlik jamoaviy xarakterda yoki ijtimoiy muammolarni hal etishda qo'llanadigan jamoaviy shartnomalarda o'z aksini topgan. U asosan mehnat qonunchiligida u yoki bu ko'rinishdagi munosabatlarni tartibga solishda namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy hamkorlikning eng ta'sirchan shakli bo'lib, ushbu sohada kelishuvlarga erishish hisoblanadi. Bugungi qarashlar va amaliyot tajribalaridan kelib chiqib, ijtimoiy hamkorlikni quyidagicha tushuntirish mumkin.

Ijtimoiy hamkorlik - bu birinchidan, tenglikka asoslangan, ijtimoiy masalalarni hal etishga ko'maklashishga qaratilgan shartnomaviy kelishuv.

*Ikkinchidan*, davlat va jamiyatning bir xilda rivojlanishida muvozanatni ta'minlovchi omil.

*Uchinchidan*, jamiyatning kam ta'minlangan va qo'shimcha himoyaga muhtoj qatlamini bevosita himoyaga olinishi haqida xabardor qiladigan kategoriyadir.

*To'rtinchidan*, davlatga ko'maklashuvchi, qonunlarning qattiq normalarini yumshatuvchi tamoyillar majmuidir.

*Beshinchidan*, muruvvat va qonun normalari o'rtasidagi bog'lovchi ko'priq.  
*Oltinchidan*, adolat mezonining ochiq ko'rinishidir.

Mamlakatimizda ijtimoiy hamkorlikni ta'minlash borasida qabul qilingan qonunlar asosan - hayriya faoliyati, davlatning ayrim funksiyalarini amalga oshirishda faol ishtirok etish, fuqarolar iqtisodiy-ijtimoiy huquqlarini ro'yobga chiqarish, biror-bir ko'rinishdagi ijtimoiy tadbirlarni amalga oshirishga ko'maklashishlarda namoyon bo'lmoqta.

Ijtimoiy hamkorlik bevosita jamoatchilik nazoratining vujudga kelishi va

uni amalda ta'minlash uchun qulay muhitning yaratiliga ham olib keladi. Ijtimoiy hamkorlik keng rivojlanishi nodavlat notijorat tashkilotlar faolligini ortishi, maqsadli jamoatchilik nazoratini ta'minlanishiga olib keladi.

**XULOSALAR.** Xulosa qilib aytganda mamlakatimizda nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faolitini yanada takomillashtirishda quyidagi masalalarni bartaraf etishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq deb bildik:

birinchidan, fuqarolik jamiyati institutlarining muhim davlat qarorlarini qabul qilishdagi o'rni va ta'sirini kuchaytirish;

ikkinchidan, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining samaradorligini yanada oshirishga monelik qilayotgan omillarni kompleks ravishda o'rganish va tahlil qilish, Uzbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ahvoliga oid yillik milliy ma'ruzalar tayyorlashni amaliyotga joriy etish;

uchinchidan, NNTlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga yo'naltirilgan kompleks choralarni amalga oshirish, NNTlar va boshqa fuqarolik institutlarini institutsional rivojlantirish, ularning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga yo'naltirish.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Клямкин И.М., Тимофеев Л.М. Теневой образ жизни. Социологический автопортрет постсоветского общества // Полис. 2000. № 4. С. 19.
2. Непрерывное образования и потребность в нем / Отв. ред. Г.А.Ключарев. М.: Наука. 2005. С. 9.
3. Giddens A. The Consequences of Modernity. Cambridge: PolicyPres, 1990.
4. Котта А., Ривуар Ж. Капитализм и рыночная экономика / Пер. франц. М.: 1995. С. 170.
5. Московский журнал международного права. 2001. № 4.
6. Положение детей и молодежи в России. Проблемы, политика, благотворительная деятельность. М.: Международный молодежный фонд, 1998. С. 43.

7. Карташев Н.В. Партнерство семьи и образовательного учреждения в воспитании ребенка // Общественные институты – реальная социальная сила развития гражданского общества в России / Под ред. О.А. Копцевой. М.: Фонд социального развития, 2006. С. 24.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 15.09.2017 yildagi PQ-3276-son.  
<https://lex.uz/docs/-3343077>